



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGI
HAY‘AT QARORI**

2025-yil 7-noyabr

№ 17/1

Toshkent sh.

Ijro intizomiga qat‘iy rioya etilishini ta‘minlash, “Ijro.gov.uz” tizimidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi 2025-yil oktabr oyi yakunlari, noyabr oyida bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqlar ijrosini barvaqt bajarish bo‘yicha oldindan zarur chora-tadbirlarni ko‘rish, topshiriqlarning ijrosini o‘z vaqtida, samarali va to‘liq hajmda ijrosini ta‘minlash yuzasidan barcha darajadagi rahbar-xodimlarning shaxsiy mas‘uliyati va javobgarligini oshirish to‘g‘risida.

Vazirlik hay‘ati ta‘kidlaydiki, 2025-yilning oktabr oyi davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166 va 2025-yil 25-yil iyuldagi PF-117-sonli Farmonlari hamda 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-sonli qarori asosida ijro intizomiga rioya etish, “*Ijro.gov.uz*” tizimida nazoratda turgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari ijrosini so‘zsiz ta‘minlash borasida qat‘iy tartib, intizom va tizimli nazorat o‘rnatilib muayyan natijadorlikka erishilgan.

2025-yilning oktabr oyida ijrosi ta‘minlanishi lozim bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlarini 25-oktabrga qadar ijrosini ta‘minlashga qaratilgan I-II-kartoteka topshiriqlar ro‘yxati 5-sentabr kuni, vazir o‘rinbosarlari kesimidagi *Kalendar reja* hamda “*Yo‘l xarita*”lar “Ijro.gov.uz” tizimidagi qo‘shimcha va o‘zgarishlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilib, 24-sentabr kuni Vazir Sh.Xamrayev imzosi bilan eslatma va ijro uchun barcha vazir o‘rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlariga yetkazilgan.

Hisobot davrida ijrosi ta‘minlanishi lozim bo‘lgan jami 60 ta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda 78 ta Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari ijrosi to‘liq ta‘minlanib “Ijro.gov.uz” tizimidan nazoratdan chiqarilgan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining 28 ta topshiriqlaridan 25 tasi (89,3 foizi) bajarilib, vazirlik markaziy apparati boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlari tomonidan 3 ta (10,7 foiz) topshiriq ijrosi ta‘minlanmasdan qolgan.

Suv va gidrotexnik inshootlar kadastrini yuritish boshqarmasi (N.Mingboyev) tomonidan Prezident Administratsiyasi rahbarining joriy yil 2-oktabrdagi 02-PA 1-1-3185-sonli ko‘rsatmasining 5-ilova 12-bandi, ya‘ni Qiziltepa tumanida “Nurli Hayot ays krem” MCHJ tomonidan qiymati 12 mlrd so‘mlik, 20 ming bosh o‘rdakka mo‘ljallangan o‘rdakchilik kompleksini yaratish uchun “Xo‘jaqo‘rg‘on” mahallasidagi Toshrobot kollektorining muhofaza zonasida o‘rdakxona va inkubatsiya obyektlarini tashkil etish uchun suv fondi yerlari toifasi o‘zgartirilishini ta‘minlash topshirig‘i bajarilgan bo‘lsada, hozirgi kungacha ijrosi nazoratdan yechilmagan.

Suv xo'jaligi loyihalarini amalga oshirish departamenti (N.Xo'jaqulov) tomonidan mazkur ko'rsatmaning 3-ilova 17-bandi, ya'ni Kogon tumanidagi jami sug'orish tarmoqlarining 66,3 km qismini betonlashtirish uchun 43,3 mlrd so'm mablag' talab etilishi aniqlanib, Buxoro viloyatida kanallarni betonlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida 5,4 mlrd so'm mablag'lar hisobiga "Cho'kati" kanalining 3,0 km qismi betonlashtirilganligi, ushbu topshiriq ijro muddatini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-avgustdagi PQ-250-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2025-2028-yillar prognoz ko'rsatkichlarga muvofiqlashtirish va respublika byudjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobiga 66,3 km kanallarni betonlashtirish ishlarini 2025-2028 yillar davomida bosqichma-bosqich amalga oshirilishiga ruxsat berilishini so'rab 2025-yil 15-oktabrdagi 01/27-1316-son xat orqali Prezident Administratsiyasiga murojaat qilingan.

Suv xo'jaligida bozor mexanizmlarini joriy qilish davlat muassasasi (B.Xushvaqtov) tomonidan ushbu ko'rsatmaning 7-ilova 24-bandi ya'ni Norin, Uchqo'rg'on, Uychi, Namangan, To'raqo'rg'on, Mingbuloq va Pop tumanlaridagi daryo va kanallarning qirg'oq mintaqa suv fondi yer maydonlarida 650 ta tadbirkorlik subyektlari tomonidan ekoturizm loyihalarini tashkil etish imkoniyati hisobiga 4 mingta yangi ish o'rnini yaratish, mazkur loyihalarni amalga oshirish uchun Namangan viloyatidagi daryo va kanallarning 40 kilometr qirg'oq mintaqa suv fondi yer maydonlarining ekotizimini saqlagan holda uzoq muddatli ijara shartnomasi asosida tadbirkorlarga berish tizimini ishlab chiqish topshirig'i ijro muddatini 2026-yil 1-mayga qadar uzaytirilishida amaliy yordam so'rab, 2025-yil 22-oktabrdagi 01/32-162-son xat orqali Prezident Administratsiyasiga murojaat qilingan.

2025-yilning noyabr oyida ijrosi ta'minlanishi lozim bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlarni 25-noyabrga qadar ijrosini ta'minlashga qaratilgan I-II-kartoteka topshiriqlar ro'yxati 7-oktabr kuni, vazir o'rinbosarlari kesimidagi Kalendar reja hamda "Yo'l xarita"lar "Ijro.gov.uz" tizimidagi qo'shimcha va o'zgarishlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilib, 25-oktabr kuni Vazir imzosi bilan eslatma va ijro uchun barcha vazir o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlariga yetkazilgan.

Lekin, vazirlik markaziy apparati yig'ilishlarida hamda har haftaning dushanba kunlari Vazir huzurida o'tkaziladigan yig'ilishlarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlarning 40,0 foizini 10-sanaga qadar, 60,0 foizini 15-sanaga qadar, 80,0 foizini 20-sanaga qadar hamda qolgan barcha topshiriqlar ijrosini 25-sanaga qadar 100,0 foiz qilib ta'minlash bo'yicha muntazam ravishda tegishli ko'rsatmalar va topshiriqlar berilishiga qaramasdan, ayrim vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda respublika tashkilotlari rahbarlari tomonidan ijro intizomiga rioya qilmaslik, topshiriqlar ijro muddatini kutib o'tirish va topshiriqlarni barvaqt bajarish choralari ko'rmaslik holatlari uchramoqda.

2025-yilning noyabr oyida ijrosi ta'minlanishi lozim bo'lgan topshiriqlardan Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligining Melioratsiya obyektlaridan va mexanizmlaridan foydalanish boshqarmasi (D.Axmatov)da-8 ta, Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligining Nasos stansiya-laridan foydalanish boshqarmasi (O.Abdullayev)da-6 ta, Davlat-xususiy sheriklik va autsorsing xizmatini rivojlantirish bo'limi (B.Umarbekov) hamda Suv xo'jaligida islohotlar markazi (X.Lapasov)da - 5 tadan, Transchegaraviy suv resurslarini boshqarish va suv kadastri boshqarmasi (J.Abdurazzoqov), Suv xo'jaligi loyihalarini amalga oshirish departamenti (N.Xo'jaqulov) hamda Suv xo'jaligida xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazi (S.Astanov)da - 4 tadan topshiriqlar ijrosiga kirishilmagan va ularning ijrosini barvaqt bajarish choralari ko'rilmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, taqdim etilgan hisobot va axborotlarni tinglab hamda muhokama qilib ijro intizomiga rioya qilish borasida oktabr oyida yo'l qo'yilgan sustkashlik, xato va kamchiliklarni bartaraf etish, noyabr oyida "Ijro.gov.uz" tizimidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari ijrosini barvaqt bajarish bo'yicha oldindan zarur chora-tadbirlarni ko'rish orqali belgilangan muddatlarda, to'laqonli va sifatli ta'minlash, qat'iy tartib, intizom va tizimli nazorat o'rnatish hisobiga natijadorlikka erishish bo'yicha boshqaruvning barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarining shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish maqsadida hay'at yig'ilishi

Qaror qiladi:

1. *Ijro intizomiga qat'iy rioya etilishini ta'minlash, "Ijro.gov.uz" tizimidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi 2025-yil oktabr oyi yakunlari, noyabr oyida bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlar ijrosini barvaqt bajarish bo'yicha oldindan zarur chora-tadbirlarni ko'rish, topshiriqlarning ijrosini o'z vaqtida, samarali va to'liq hajmda ijrosini ta'minlash yuzasidan barcha darajadagi rahbar-xodimlarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini oshirish to'g'risidagi axborot **rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.***

2. Vazir o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlari tomonidan 2025-yil oktabr oyi davomida ijro intizomiga rioya etish, "Ijro.gov.uz" tizimida nazoratda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash, shuningdek, vazirlik va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklaridan kelib tushayotgan barcha hujjatlarning ijrosini belgilangan muddatlarda ta'minlash borasida olib borilgan ishlar **qoniqarsiz deb topilsin.**

3. 2025-yil oktabr oyida ijrosi ta'minlanishi lozim bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining topshiriqlari ijrosini ta'minlashga mas'uliyatsizlik bilan yondoshganligi va ijrosini ta'minlamaganligi uchun Suv xo'jaligi loyihalarini amalga oshirish departamenti direktori v.b N.Xo'jaqulov, Suv xo'jaligida bozor mexanizmlarini joriy qilish davlat muassasasi direktori v.b B.Xushvaqto'v hamda Suv va gidrotexnik inshootlar kadastrini yuritish boshqarmasi bosh mutaxassisi N.Mingboyevlarga **so'ngi marotaba ogohlantirish e'lon qilinsin.**

Belgilab qo'yilsinki, kelgusida ijro intizomiga rioya qilinmaganda, "Ijro.gov.uz" tizimida nazoratda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosini belgilangan muddatlarda sifatli va to'liq qilib ta'minlamagan taqdirda ularga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasiga muvofiq **mehnat shartnomasini bekor qilishgacha bo'lgan intizomiy jazo choralari qo'llaniladi.**

4. 2025 yil 7 oktabr kuni Suv xo'jaligi vaziri Sh.Xamrayev tomonidan tasdiqlangan joriy yilning **noyabr oyida** ijrosi ta'minlanishi lozim bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlarini 25-noyabrga qadar ijrosini ta'minlashga qaratilgan I-II-kartoteka topshiriqlar ro'yxati hamda qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan holda 25-oktabr kuni qayta tasdiqlangan vazir o'rinbosarlari kesimidagi *Kalendar reja* hamda "Yo'l xarita"lar **ijro uchun qabul qilinsin.**

Belgilab qo'yilsinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari ijrosini belgilangan muddatlarda to'liq

va sifatli bajarilishi, shuningdek, ularning ijro holati to'g'risidagi ma'lumotlarning to'g'riligi va ishonchligiga hamda "Ijro.gov.uz" tizimiga o'z vaqtida kiritilishiga Vazirning barcha o'rinbosarlari shaxsan mas'ul hisoblanadilar.

5. Vazirning birinchi o'rinbosari Z.Ishpulatov, Vazir o'rinbosarlari R.Qarshiyev, O.Sheraliyev va M.Karimov, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlariga:

bir kun muddat ichida mazkur yig'ilish qarorini har bir xodimga o'qib eshittirish, uning mazmun-mohiyatini yetkazish, ijro intizomiga rioya qilinmaganda, shuningdek, topshiriqlarning ijrosi belgilangan muddatlarda ta'minlamagan taqdirda intizomiy jazo chorasi muqarrarligi, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan ajratiladigan mukofot va rag'batlantirish mablag'laridan chegirib qolinishi haqida rasman ogohlantirish orqali barcha darajadagi rahbar va xodimlarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish;

2025-yilning ***noyabr oyida*** ijrosi ta'minlanishi lozim bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlarning 40,0 foizini 10-noyabrga qadar, 60,0 foizini 15-noyabrga qadar, 80,0 foizini 20-noyabrga qadar hamda qolgan barcha topshiriqlar ijrosini 25-noyabrga qadar 100,0 foiz qilib ta'minlash;

vazirlik tomonidan ishlab chiqilishi lozim bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarga, dasturlar, takliflar va chora-tadbirlarga aniqlik kiritib ularning ro'yxatini shakllantirish, tegishli vazirlik va idoralar hamda vakolatli organlar bilan kelishilgan hamda Adliya vazirligining xulosasini olgan holda Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini tashkil etish bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbari-ning va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlarini tahlil qilib, ushbu topshiriqlar ichidan mablag' talab qilinadigan va xorijiy mamlakatlar, shu jumladan, Xalqaro moliya institutlari va chet el investitsiyalari bilan bog'liq masalalar bo'yicha birinchi navbatda shug'ullanib, ularni to'laqonli va sifatli ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish;

har bir berilgan ko'rsatma va topshiriqlarga asosan, ijro intizomi masalasiga yuqori mas'uliyat bilan yondashgan holda belgilangan topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida, to'liq va sifatli ta'minlash bo'yicha ishlarni to'g'ri rejalashtirish, topshiriq ijrosini amalga oshirish uchun eng kam mablag', resurs va energiya sarflanishi zarurligini inobatga olish;

topshiriqlarni ijro muddatidan barvaqt bajarish bo'yicha oldindan zarur chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish, yuzaga kelayotgan har bir muammoli masalani vazir o'rinbosarlari, lozim bo'lsa Vazir huzurida muhokama qilib, hamkorlik va muloqot asosida hal etish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari ijrosini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni ***har hafta juma kuni va vazir huzurida har haftaning dushanba kunlari*** muhokama qilib, bayon bilan rasmiylashtirib borilishini tashkil etish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlarida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni muntazam ravishda (har oy yakuni bilan) tahlil qilib borish, ushbu hujjatlarning ijrosini ta'minlashga e'tiborsizlik va mas'uliyatsizlik bilan yondashayotgan rahbar-xodimlarga nisbatan tegishli intizomiy jazo choralari qo'llash yuzasidan Vazirlik rahbariyatiga asoslangan xulosa va takliflar (*intizomiy jazo chorasi qo'llash yuzasidan buyruq loyihasi*) taqdim etish vazifalari topshirilsin.

6. Vazir yordamchisi S.Alimov hamda Tashkiliy-nazorat va tahlil bo'limi boshlig'i M.Ibragimovlarga:

Suv xo'jaligi vaziri Sh.Xamrayev tomonidan tasdiqlangan I va II kartotekaga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari ro'yxati, Kalendar reja hamda vazir o'rinbosarlari kesimidagi "Yo'l xarita"lar ijrosi yuzasidan kunbay tizimida tizimli va qat'iy monitoring yuritish;



qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi bo'yicha "Ijro.gov.uz" tizimiga kiritilgan ma'lumotlar va tasdiqlovchi hujjatlarga asosan topshiriqlarni nazoratdan yechish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Hisob palatasi bilan muntazam ravishda hamkorlikda ish olib borish;


O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlarida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni muntazam ravishda (har oy yakuni bilan) tahlil qilib borish, ushbu hujjatlarning ijrosini ta'minlash yuzasidan olib borilayotgan ishlar haqida Vazirlik rahbariyatiga axborotlar taqdim etish vazifalari topshirilsin.


7. Mazkur qaror topshiriqlarining ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari (*ijro intizomi uchun mas'ul*) R.Qarshiyev zimmasiga yuklatilsin.

Hay'at raisi  - Sh. Xamrayev


✉: M. Ibragimov
☎: (71) 202-47-07


(Sh. Xamrayev) 
(R. Qarshiyev)


(U. Murodov)


(K. Khatunov)

(K. Khatunov) 

(A. Murodov) 


(U. Murodov)